



OILADAGI TARBIYANING BOSH MEZONI - HALOLLIKDIR.

Axmedov Farxod Saydaliyevich

*Podpolkovnik Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli
o'qituvchisi +99899 8226327*



Annotatsiya: Mazkur maqolada oiladagi tarbiyaning bosh mezoni halollik hisoblanib, milliy va diniy qadriyatlarga, milliy urf-odatlarga ega bo'lgan buyuk xalq ekanligimizni, millatimizda azal-azaldan iymon, e'tiqod, vijdon, diyonat, or-nomus, sharm-hayo, uyat, insof, oriyat, andisha, g'urur, iftixor, shijoat, sabr-toqatlilik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik va halollik kabi insoniylik xislatlari shakllantirilgan.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, oila, inson, hallolik, korrupsiya, vaksina, harom, yolg'on, xiyonat, aldamchilik, jinoyat.

Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.

Abdulla Avloniy

Jamiyatning poydevori – oiladir. Har bir insonning hayotga bo'lgan qarashi, axloqi va ma'naviyati, eng avvalo, uning tarbiya topgan oilasida shakllanadi. Oila muhitidagi samimiylik, mehr-oqibat va, eng muhimi, halollik tuyg'ulari bola qalbiga chuqur singsa, u kelgusida jamiyatning halol, pok va mas'uliyatli a'zosiga aylanadi. Shuning uchun ham "Oiladagi halollik – tarbiyaning bosh mezonidir" degan g'oya beqizga aytilmagan. Zero, halollik – insonni har qanday yomonlikdan tiyib turuvchi ma'naviy qalqondir, oilada esa bu fazilat butun avlodning to'g'ri yo'lda yetishib chiqishini ta'minlaydi.

Halollik – insonni insoniyligidan ajratmaydigan eng ulug' fazilatlardan biridir. Bu xislat, avvalo, oila muhitida shakllanadi. Bolalar kattalarning har bir so'ziga, harakatiga, hatto munosabatiga ham taqlid qiladilar. Shu bois, ota-onalar o'z hayotida halollikka amal qilsalar, bolalar ham bu fazilatni tabiiy ravishda o'zlashtiradilar.

Oilada halol mehnat qilish, haqqoniylik, adolat va to'g'ri so'zlilik ustuvor bo'lsa, bu muhitda tarbiya topayotgan farzandlar yolg'on, xiyonat va aldamchilikdan uzoq bo'ladilar.



Aksincha, agar kattalar yolg'on gapirsa yoki boshqalarning haqqini yeyishni odat qilsa, farzand ham shunday yo'lni to'g'ri deb qabul qilishi mumkin. Shuning uchun ham oilada halollik na faqat shaxsiy sifat, balki butun avlod taqdiri uchun javobgarlik hissini uyg'otuvchi qadriyatdir.

Halollikni targ'ib etishda milliy va diniy qadriyatlarimiz muhim o'rin tutadi. Islom dinida halol mehnat qilish, halol rizq topish va haqiqatni so'zlash insonning eng ulug' burchi sifatida ta'kidlanadi. O'zbek xalq maqollarida ham bu g'oya aniq ifoda etilgan: "Halolning hidi dunyodan o'tadi", "Halol odamning yuzi yorug'" kabi iboralar bejiz aytilmagan.

Tarbiya bir kunlik emas, balki bir umrlik jarayondir. Aslida biz ulkan milliy va diniy qadriyatlarga, milliy urf-odatlariga ega bo'lgan buyuk xalqmiz. Millatimizda azal-azaldan imon, e'tiqod, vijdon, diyonat, or-nomus, sharm-hayo, uyat, insof, oriyat, andisha, g'urur, iftixor, shijoat, sabr-toqatlilik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik va halollik kabi insoniylik xislatlari shakllantirilgan. Bu xislatlarning barchasi bizning milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimiz sanaladi. Shu sababli, biz ularni saqlashimiz, rivoj-lantirishimiz va farzandlarimiz qalbiga doimiy singdirib borishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak", deb ta'kidladi.

Bu Vatani-miz taraqqiyotini jadallik bilan olg'a surish uchun korrupsiya ildizlariga bolta urish, har bir odam o'z oldiga halollikni bosh vazifa qilib qo'yishi lozimligini, halol bo'lmagan odamlarni majoziy ma'noda, "halollik vaksinasi" bilan emlash zarurligini anglatadi. Xo'sh, "halollik vaksinasi" nima va u qanday emlanadi?

Nazarimizda, "halollik vaksinasi" inson qalbiga igna bilan emas, imon nuri orqali o'tib, uning vijdonini poklaydi. Har qanday insonga qondan va ona suti orqali "halollik vaksinasi" singib boradi. De-mak, inson halol bo'lishi uchun uning imoni butun bo'lishi lozim. Har bir odam o'z ishini halol bajarsa, u "halollik vaksinasi" bilan emlangan bo'ladi. Ana shunday immunitetni shakllantirish vazifasi avvalo ota-onalar, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlari, shuningdek, xalqimizning ziyoli, ma'naviyatli qismi zimma-siga yuklanadi.

Oiladagi halollik – tarbiyaning bosh mezonidir deb bejiz aytilmagan. «Odam bolasi bu yorug' olamga yomonlik, harom ish, jinoyat, xiyonat qilish uchun kelmaydi. Undan maqsad, mas'uliyat, daxldorlik hissi doim ulug'vor. Shu bois peshona teri, halol xizmati bilan yaxshilarga yondashadi. Kimni baxtli, deb hisoblash mumkin, degan savolga yunon faylasufi Suqrot shunday javob bergan ekan: «Kimda halol fikr va o'tkir zehn bo'lsa, o'shani». Demak, halollik fikrdan boshlanmogi kerak. Halollik shunchaki insoniy fazilat emas, balki ma'naviy poklanish jarayoni, g'urur, metin iroda, sabr-qanoat, o'zini o'zi nazorat qilish, ichki va tashqi fazilatlar uyg'unligidir.



Halol – arabcha soʻz boʻlib, ruxsat etilgan, yoʻl qoʻyilgan, qonuniy, asosli, toʻgʻri, vijdonli odam maʼnosida ham, shariat hukmiga muvofiq esa, ichsa, foydalansa boʻladigan, harom emas degan mazmunga ham ega.

«Halollik» kishining oʻziga qarashli, oʻz mehnati bilan, peshona teri toʻkib topilgan, xiyonat, gʻirromlik kabilardan holi demakdir.

Qurʻoni karim, hadislar va shariat koʻrsatmalari inson maʼnaviy-maʼrifiy kamolotining asosi boʻlgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini oʻz ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar maʼnaviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlarning mukammal toʻplamidir. Qurʻoni karim, hadislarini, shariat koʻrsatmalarini oʻrganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, imon va vijdon bilan bogʻliq boʻlgan birorta ham muhim masala eʼtibordan chetda qolmaganini koʻramiz. Ayniqsa islom harom va halol masalasiga musulmonlar eʼtiborini qaratadi. Shariatda Olloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Harom esa, aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Odatda, xalqimiz «halol» va «harom»ni yeyiladigan va ichiladigan narsalarga ishlatib kelgan. Shariatda ijozat etilgan hamma narsalar, yeyiladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar halol deb hisoblangan. Ijzat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa haromdir. Olloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

Xudo bizga qoʻygan talab bitta – imonli boʻlish, halol yashash va halol mehnat qilish. Har qaysi inson qayerda boʻlmasin va qaysi vazifani bajarmasin, u viloyat rahbarimi, tuman hokimimi, xoʻjalik yoki korxona rahbarimi, oddiy kosib yoki dehqonmi – martabasi va kasbidan qatʼi nazar, oʻzini harom-xarish ishlardan tiysin va oʻz joyida oʻz vazifasini halol bajarsin”.

Shu oʻrinda Iskandar Zulqarnaynning qilgan vasiyati bilan tanishsak:

Iskandar Zulqarnayn shunday degan ekan;

- Men vafat etgach mozorga olib borayotganda qoʻlimni tobutdan chiqarib qoʻyinglar, toki yarim dunyoni egallagan boʻlsam-da, u dunyoga quruq qoʻl bilan ketayotganimni odamlar koʻrib qoʻysin.

Iskandar Zulqarnaynning bundan 25 asr oldin qilib oʻtgan vasiyati hozirgi kunda ichki ishlar organlari xodimlari uchun ibrat vazifasini oʻtasa ne ajab.

Nizomiy Ganjaviy oʻzining «Xamsa» asarida mehnatning inson hayotining boshi va asosi deb atab «Biz dunyoga safsata sotish uchun emas, balki mehnat uchun kelganmiz. Halol turmushing mehnatdir. Har qanday ogʻir mashaqqatli mehnat taʼmagirlikdan, birovlarining inʼom-ehsoniga tobe boʻlishidan afzaldir»-deydi, va:

Oʻzga xizmatiga choʻzmayin qoʻlin,
Qoʻl kuchidan rizq topmoqlik yoʻlim,
Oʻz rizqin mehnati kelmas hech malol,
Faqat mehnat ila topgan non halol.

Nizomiy Ganjaviy yana: «Xalqim mehnatining mahsulini yeyish bilan qorningni toʻldir, qurtdek shishir. Lekin unutmaginki, bir kun keladi, unda yeganlarni qustirish uchun, ularni barmoqqa aylantirib bugʻzingga tiqadilar»-deya, oʻz zamonasining odamlarini halol mehnat qilishga, haromdan hazar qilishga, birovning haqqini yemaslikka chaqiradi.

Xalqimizda saqlanib kelayotgan bir maqolda yuqoridagi mavzuga aloqador fikr taʼkidlanadi: «Yarimta nonim – rohati jonim». Maqolning sirtqi va birlamchi maʼnosi ozgina



bo'lsa ham, halol rizq topgan odam qalb halovatini sezishi haqida. Buni boshqacha tomondan ta'riflash ham mumkin: qanchalik boyib ketsang-da, qalbingga g'ubor tushiradigan ishni qilishdan saqlan, shunda oldingdagi halol rizqingni rohatlanib, maza qilib yeysan.

Lekin dunyo tamaddunida o'ziga xos salmoqqa ega bo'lgan donishmand xalqimizning maqoli bor: «Arzonning sho'rvasi tatimas».

Yaqin o'tmishda ota-bobolarimiz ro'zg'or tebrataman, deb o'z uylaridan chiqishida ayollari uyda o'nlab qiz-o'g'il farzandlari bo'lsa ham, turmush o'rtog'iga qarata: «xo'jayin, oilamizga, farzandlarimizga faqat halol rizq olib keling, bizlar bu dunyoda ocharchilikka chidaymiz, lekin oxiratning azobiga chiday olmaymiz»-deya, halol rizqqa juda qattiq e'tibor qaratishganlar. Tozalikka, halollikka shu darajada e'tibor berganki, hattoki, ariqlarda oqayotgan suvlardan odamlar ehtiyojlari uchun iste'mol sifatida foydalanganlar. Momolar sovchilikka borishmoqchi bo'lsalar, bo'lajak kelinning hovli supirishini kuzatishganlar. Qizlar axlatlarni ariq tomonga supurishmasa, sovchilikka borishganligini hozirgi kunda keksalarimiz xotirlab o'tadi.

Atrofga qaraylik, kimningdir bolasi o'g'irlik qilib, qamalgan. Kimningdir bolasi jinoyat qilib, qochib yuribdi. Yana kimningdir qizi fahsh ko'chasiga kirib ketgan... Bu ko'rgiliklarning ildizi qayerdan suv ichadi? «Qozoningga mehnat hosilidan bo'lak harom-xarish narsa tushmasin, bil'aks, uni iste'mol qilgan farzandlar ota-onasiga bemehr, bemuruvvat bo'ladilar», degan oddiy haqiqatni bilmaydiganlar ko'pmi oramizda? Harom botqog'iga botib yotganlarga balo ham urmayapti, sotuvchi-xaridor mojarosi dengizdan bir tomchi-ku, demoqchimisiz?

«Rasululloh (s.a.v.) o'z hadislarida pora olgan ham, pora bergan ham do'zaxiy ekanini ta'kidlaganlar. Poraning turi ko'p. Masalan, pora – haqi bo'lmagan ishni bajarish uchun ishning boshida turgan rahbarlarni harom yo'lga, g'ayriqonuniy yo'lga boshlash, to'g'ri yo'ldan ko'z yumish, nohaqlik qilishi uchun beriladigan pul yoki moddiy manfaatdorlik. Natijada har ikki tomon harom ishga qo'l urgan bo'ladi.

Xoh sud, xoh soliq, xoh bojxona, xoh hokimiyat ma'muriyati bo'lsin, xoh oliy o'quv yurti yoki shu kabi boshqa joy bo'lsin, u yerda davlat tomonidan har bir fuqaroning haqini hisob-kitob qiladigan, ishchilarga maosh beradigan xodim yoki xodimlar bo'ladi. Bu xodim, albatta, qonun asosida ishlashi, har bir fuqaro haqini ko'z qorachig'idek asrashi kerak. Lekin pora berib, o'z ishini bajaradigan kishi: «Sening xalqning haqi bilan ishing bo'lmasin, lavozimingni ham o'ylama, men senga shuncha pora beraman, mening ishimni bajar. Nohaq bo'lsam ham ishim bitsin. Men seni ko'rmadim, sen meni ko'rmading, tamom-vassalom!», – deb ishini bajarib ketganlar oqibatini, do'zax olovini o'ylamaydilar mi? Olganlar-chi?! Gugurt cho'pining olovi barmoqni kuydirsa, necha kun azob chekiladi, a? Jahannam olovi-chi?

Insonni halol yashashi yoki harom yashashi bu birinchi navbatda kishining nafsiga bog'liq».

Hazrati Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo'lishga chaqirishda foydalanish o'rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag'lub shoh - qul, nafsdan ustunlikka erishgan



g'arib - shohdir, deb aytadi. Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo'lmagan kishining g'ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan. O'z hikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroq bo'lur.
Yotsa - tursa shayton bilan hamroq bo'lur....

U nafs bandalariga qarata «Nafsni tebgil, nafsni tebgil ey badkirdor» deb murojaat etadi, va

«Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi,

Termultirib xaloyiqqa zor ayladi», - deb nafs bandalarini tanqid etadi. Nafs insondagi butunlikni, iymonni sindiradi, ma'naviy jihatdan jarlikka qulatadi. Shu bois «Nafsni tanib mehnat yetsa rohat», - deb xitob qiladi. Bu g'oyalar bizning hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g'oyat muhim.

Har bir inson o'ziga-o'zi savol beradigan vaqt keldi. Qanday savol bo'lishi mumkin. Men kimman? Bu yorug' olamga nimaga keldim? Shu bugun davlat, jamiyat, xalq manfaati uchun nima ish qildim?-degan savollar. Har bir inson bu savollarga quyidagicha javob izlashi: «Men insonman, inson. Menda hech qaysi hayvonda yo'q narsa aql bor, ong bor, fikrlash bor. Men nima uchun shunday ne'matlarni qadriga yetib «INSON» bo'lishga harakat qilmayman. Davlat, jamiyat tomonidan belgilab berilgan qonun va axloq mezonlarini buzaman. Mening inson ekanligim kayerda qoldi. «Eh», «attang», «qaniydi»-degan so'zlarni kech bo'lmasidan oldin harakatni hozirdan boshlash kerak.

Ma'lumki, Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzo temuriy hukmdorlardan biri edi. Bobur o'z xotiralarida otasining naqadar adolatli va halol odam bo'lganini ko'rsatuvchi shunday ma'lumotni keltirib o'tadi. Qay bir yili Xitoydan Farg'o-na-ga kelayotgan ming kishilik karvon O'sh tog'larida qor ko'chkini ostida qolib halok bo'ladi. Umarshayx Mirzo darhol odamlari-ni yuborib, karvonning yuklarini nazorat ostiga oldiradi. Egallari halok bo'lgan shu mollarni ikki yildan ziyod ehtiyotlab saqlay-di. Xuroson va Samarqandga maxsus odam yuborib, karvon egallarining merosxo'rlarini daraklatib toptiradi va ularni o'z mamlaka-tiga chaqirtirib, mollarni to'laligicha qo'llariga topshi-radi.

Bunday misollarni o'tmishdagi oddiy odamlar hayotidan ham ko'plab keltirish mumkin. Xudoga ming shukrki, hozir ham hayotimizda shu ezgu tushunchalar barqaror va ustuvor. Shuning uchun ham biz yo'limizda to'siq bo'lib turgan, xalqimizning, fuqarolarimizning haqli ravishda noroziligi va qahr-g'azabiga sabab bo'layotgan ba'zi bema'ni ishlarni tag-tomiri bilan yo'qotish haqida ochiq, oshkora gapiryapmiz.

Halol xizmat qilish va turmush kechirishda qanoatning o'rni ham beqiyosdir. Qanoat borasida hazrat Navoiy shunday deydi: «Qanoat bir chashmaki, suvi olgan bilan qurimas, u bir xazinaki, sarflagan bilan naqdi kamaymas, u bir ekinzorki, undagi urug'lar izzatu shavkat hosilini beradi va u bir daraxtki, muhtojisizlik va hurmat mevasini tugadi. Undan ko'ngilga ochiqlik va ko'zga ravshanlik yetadi.

Qanoatli darveshning qotgan noni tamagir shohning to'kin dasturxonidan yaxshiroqdir. Shoh bu olmasdan berguvchidir, gado sochmasdan terguvchidir.

Ish ko'pligi-yu, vaqt yo'qligidan nolimang. Vaqt ko'pligi-yu, ish yo'qligidan qo'rqing. Odamni abgor qiladigan narsa -bekorchilik.



Halollik insonni ulug'laydi va obro'sini oshiradi. Shu bois ham halollik ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatining bosh mezoni hisoblanadi.

Iymonli odam harom luqma, birovning haqini yeyishdan, harom ishlar qilishdan tiyi-ladi, chunki uning vijdoni pokligi bunga yo'l qo'ymaydi. Va albatta, u ota-onasi, qarindosh-urug'lari, xalqi va Vatani uchun fidoyilik bilan halol mehnat qiladi, halol luqma to-pib, farzandlariga yediradi.

Ming afsuski, yaqin vaqtgacha "halollik vaksinasi" bilan emlanmagan odamlar poraxo'rlikka, tanish-bilishchilikka berilib ke-tishi natijasida korrupsiya holatlariga yo'l qo'yishdi. Bu holat, barcha sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim muassasalariga kirib keli-shi kechirilmas va achinarli holat sanaladi. Oliy ta'lim muassasalarida tanish-bilish-chilik, tog'a-jiyanchilik asosida o'qishni biti-rib, diplom olgan mutaxassis, yana shu asosda ishga joylashib ham olardi. Ilmni puxta egal-lamagan "mutaxassis"dan nimani ham kutish mumkin. Bundaylar ishlaydigan soha oqsaydi, rivojlanish bo'lmaydi, oxir-oqibatda jamiyatni botqoqlikka qarab tortadi.

Korrupsiyani hozirgi kungacha hech qanday jazo, hech qanday xavf oldini ololmagan. Buning yagona yo'li – "halollik vaksinasi". Ya'ni, halollik insonning ongu shuurida bo'lishi lozim. Uni esa paydo qilish kerak bo'ladi. Yilning nomida "ma'rifat" so'zi ishtirok etayotgani ham shundan. Ochko'zlikni, yebto'ymaslikni faqat ma'rifat bilan yengish mumkin-da. Millatning yuzlab yillar davomida yiqqan bilimi, tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, albatta, "halollik vaksinasi"ni paydo qilish uchun yetarli bo'ladi.

Jamiyatni kuzatsak, ko'p mansabdor shaxslarni muomalasini, yurish-turishini ko'rib insonni dilida havas o'yg'onadi. Keyin qarab kuzatilsa, mansab vakolatini suiste'mol qilib, davlatga juda katta zarar yetkazganini eshitib, guvohi bo'lamiz. Nahotki, inson ongli mavjudod bo'lib, o'ylab ko'rmasa. O'ylash uchun Vatanini, ajdodlarini tarixini chuqur bilishi kerak. Mustaqillikka erishmasimizdan oldin, O'zbekiston SSSRning «dala tomorqasi» ekanligini hamma biladi. Vatandoshlarimizni qul qilib ishlatib, Vatanimizning bor boyligini taladi, tashib ketdi. Mustabid tuzum davrida ota-bobolarimizning «o'z go'shtini o'z yog'iga qovurib» peshona terisi bilan ishlab topgan bor mol-mulkini tortib olishdi, yana ularga bu ham yetmaganidek tuhmat toshlarini otishdi. O'z yurtlarida peshona teri bilan topgan rizqlarini o'z qo'llari bilan «katta og'alari»ga tutqazishga majbur qildilar.

Endi Vatanimiz ozod va mustaqil bo'lganida oramizda «ayrim kimsalar» o'z yurtining va o'z vatanoshlarining haqqiga xiyonat qilib, mansab vakolatidan foydalanib, davlat mulkini va vatandoshlari haqqini bila turib, ongli ravishda anglab talon-taroj qilayotganligini ko'rib turibmiz. Nahotki, inson zoti hech o'ylab ko'rmaydi. O'ziga-o'zi: «Men suiste'mol qilayotgan bu mol-mulklar, Vatanimning mol-mulklari, men suiste'mol qilayotgan mol-mulklar vatandoshlarimning, millatdoshlarimning mol-mulklari. Men nima qilyapman o'zi? Vatan ishonib, meni shu mansabga loyiq topganida, men Vatan, xalq, jamiyat uchun emas, bu Vatan men uchun, bu xalq mening oilam, mening nafsım uchun xizmat qilsinmi? Men suiste'mol qilayotgan mol-mulklar qanchadan qancha insonlarning mashaqqatli mehnati evaziga to'plangan mulk-ku!»-deya, fikr yuritsa, yaxshi bo'lardi.

Mansab vakolatidan foydalanib bir insonga «qilgan yaxshilik evaziga» ta'ma qilish qanday oqibatlariga olib kelishini, hayoti, taqdiri bir zumda o'zgarib, har bir inson o'ziga o'zi dushmanlik qilib qo'yishi mumkinligini bir o'ylab ko'rish kerak.



Shu o'rinda bir fikr yuritsak, davlatning mulkini o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish, fuqarolardan ta'magirlik yo'li bilan pora olish qaysi insonning bu aziz umrini bir soniyasiga almashishga to'g'ri keladi. Hech qaysi insonning. Pora olish, pora berish yoki vositachilik qilish bu dunyoda jinoyat ekanligi, buning uchun javob muqarrar ekanligi jinoyat kodeksida belgilab qo'yilgan. Qonunni tushungan, o'zini anglagan, haromdan hazar qiladigan inson bu kabi jinoyatlarni qilmaydi va o'ziga jinoyatchi degan tamga bosilishidan qo'rqadi. Bunday insonlar ertasini o'ylaydi, ota-onasini, qarindosh-urug'larini, shirindan-shakar farzand-larini o'ylaydi. Ularning ertangi kuniga dog' tushirishga yo'l qo'ymaydi.

O'z jig'ildoni payida bo'lgan odamni, qornini to'yg'azib olgan molga o'xshatishgan. Shunday ekan, ichki ishlar organlari xodimlari huquqni muhofaza qilish organi vakili bo'lib, halollikka doimo e'tibor qaratib, hech qachon davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarni buzmaslik, qonunlarga hurmat ruhida o'zi tarbiyalamog'i shart.

O'zbekiston mustaqil bo'lib, inson huquqlari va erkinliklari qadrlangan hozirgi sharoitda, bir Vatanda yashab, fuqarolarga nisbatan mansab vakolatidan foydalanib, pora olish shu vatandoshga nisbatan xiyonat ekanligini vaqtida tushunib yetish kerak.

Rivoyat qilishlaricha, uch-to'rt yoshli go'dak qo'shnisidan tuxum olib chiqib onasiga beradi. U bu qilmishining o'g'irlik ekanini bilmaydi. Tuxum ko'ziga chiroyli ko'ringani uchun olgan. Harom va halolning farqiga borishi lozim bo'lgan, ammo, bunga amal qilmaydigan johil ona esa, bolasini qaytarish o'rniga tuxumni uning qo'lidan olib:

— Mening aqlli bolaginam, onasiga mehribon shiringinam, — deb alqaydi.

Bola esa, qo'shnisidan tuxum o'g'irlab olib chiqishni odat tusiga kiritadi. Chunki onasining maqtoqlaridan bu ishni xayrli deb biladi. Oqibatda bola ulg'aygani sayin o'g'irlik miqdori ham orta boradi. Tuxumdan tovuqqa, tovuqdan qo'yga... Nihoyat, u ashaddiy jinoyatchiga aylanadi-yu, qo'lga tushib o'limga hukm qilinadi. Ona esa yolg'iz o'g'liga shafqat qilishlarini so'rab yolboradi. Onaning iltijolari e'tiborsiz qoldirilib, o'g'ri yigit dor ostiga keltirildi. Unga: «So'nggi tilagingni ayt, bajaraylik», — dedilar. Yigit: «O'limim oldida onajonimning tillaridan bir o'pay», — deb iltimos qildi. Onani yaqin keltirdilar. Yigit onasining tilini o'pish o'rniga tishlab uzib tashlaydi. Olomon: «Bu qattol buncha bemehr ekan», — deb uni la'natlaydi. Shunda yigit: «Meni jinoyat yo'lga burib, dor ostiga olib kelgan shu tildir. Avval u jazo olmog'i kerak edi», — degan ekan, dedi.

Shu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romanida yozilgan quyidagi so'zlar keltirib o'tsak. «Bir xil odamlar bor: u eshikdan kirib bu eshikdan chiqib ketayotganida qo'lidan kelgancha savob ish qiladi. Hayot degan imoratga aqalli bitta g'isht qo'yib ketadi. Yana bir xillari bor: o'sha imoratdan aqalli bitta g'isht o'g'irlab ketgisi keladi. O'g'irlab-ku, hech qayoqqa borolmaydi, narigi eshik oldiga borganda baribir tashlab ketadi. Ikki orada imoratni buzgani qoladi...».

«Mening nafsim balodur, yonar o'tga soladur» degan naqlda nafsning og'ir oqibatlari nazarda tutiladi. Tarixdan ma'lumki qanchadan qancha shohlar ham o'z nafsi tufayli saltanatlari inqirozga yuz tutgan. Shohni gado qilgan ham shu nafs. Inson davlatni mulkini nima uchun talon-taraj qiladi, porani nima uchun oladi? O'z nafsig qul bo'lganidan oladi. Shu joyda aql nafsdan ustun kelganida edi, tarbiya mustahkam bo'lganida edi, davlatni



mulkini talon-taroj qilmasdi, pora olmasdi, ta'ma qilmasdi. Ne ajabki, kambag'alda pul yo'q, boyda esa, xotirjamlik...

Xulosa qilib aytganda, halollik – oilaviy tarbiyaning eng muhim asosidir. Halollik bor joyda ishonch, mehr va totuvlik ustuvor bo'ladi. Oilada halollikni qadrlagan insonlar farzandlariga nafaqat to'g'ri yo'lni, balki hayotning haqiqiy ma'nosini ham o'rgatadilar. Shu bois, har bir ota-ona o'z hayotida halollikni namuna qilib ko'rsatishi lozim. Chunki halol oila – halol jamiyatning bosh manbaidir.

Shu o'rinda Singapurning birinchi bosh vaziri Li Kuan Yuning hikmatli so'zini eslatib o'tish o'rinlidir. U shunday ta'kidlagan edi: "Menda ikkita yo'l bor edi: birinchisi - o'g'irlash hamda do'stlarimni va qarindoshlarimni "Forbes" ro'yxatiga kiritish, bu bilan xalqimni qup-quruq yer ustida qoldirish, ikkinchisi – bu xalqimga xizmat qilish va mamlakatni dunyoning eng yaxshi mamlakatlar o'ntaligiga kiritish. Men ikkinchisini tanladim..."

Biz bolalarimizga yoshlik chog'idanoq halollik borasidagi tarbiyani ularning ongiga singdira olishimiz kerak. Shundagina biz yurtboshimiz ta'kidlagan barcha marralarni birgalikda zabt etib, oilada halol va pokiza hayot kechiramiz.

Halol va pok rizq ila hayot kechirish esa butun umrimizning samarali bo'lishi kafolatidir.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 2017-yil 3-yanvar.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 2-aprelda «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish buyicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5050-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-aprelda «Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5076-sonli Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son Qarori



III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021-yil 21-noyabrdagi «Ichki ishlar organlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 400-son buyrug'i

2. Toxir Malik. Odamiylik mulki. Toshkent, 2016-y.

IV. Internet saytlari

1. <http://mvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV);

2. <http://ipkmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti);

3. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi);